

27. Ustun ko'rinishida qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:
Robotlar


Xona birliklarini xona
birliklariga qo'shish/ayirish.



Uyning ortiqcha qismlarini toping.



1. Avtomobil zavodida 46 ta robot metall qismlarni ulash bilan, 22 ta robot tayyor mahsulotlarni yig'ish bilan band. Zavodda hammasi bo'lib nechta robot bor? Ulovchi robotlar yig'uvchi robotlardan nechta ko'p?



2. Misollarni yozishning ikkita usulini ko'rib chiqing.

$$\begin{array}{r} 46 + 22 = 68 \\ \hline 4 & 6 \\ + & 2 & 2 \\ \hline & 6 & 8 \end{array} \quad \begin{array}{r} 46 \\ - 22 \\ \hline 24 \end{array} \quad \begin{array}{r} 46 - 22 = 24 \\ \hline 4 & 6 \\ - 2 & 2 \\ \hline & 2 & 4 \end{array}$$

Qaysi usul sizga ko'proq yoqadi?

Ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirish algoritmi



1. Birliklarni birliklar tagiga, o'nliklarni o'nliklar tagiga yozing.
2. Birliklar qo'shiladi yoki ayrıladı, hosil bo'lgan sonni birliklar tagiga yozing.
3. O'nliklar qo'shiladi yoki ayrıladı, hosil bo'lgan sonni o'nliklar tagiga yozing.
4. Javobni o'qing.

$$\begin{array}{r} + \\ \hline 3 & 6 \\ 4 & 2 \\ \hline 7 & 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - \\ \hline 8 & 7 \\ 3 & 2 \\ \hline 5 & 5 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + \\ \hline 6 & 4 \\ 4 \\ \hline 6 & 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - \\ \hline 9 & 8 \\ 7 \\ \hline 9 & 1 \end{array}$$

27. Ustun ko'rinishida qo'shish va ayirish



3. Misollarni ustun ko'rinishida yeching.

$12 + 46$

$45 + 14$

$25 + 4$

$47 + 2$

$35 - 14$

$49 - 23$

$45 - 3$

$97 - 6$





4. Hisoblashlarni ustun ko'rinishida bajarib, masalani yeching.

O'tgan yili kasalxonada robotlar yordamida 31 ta tibbiy amaliyot, bu yil esa undan 12 ta ko'p amaliyot o'tkazildi. Ikkii yil davomida robotlar yordamida nechta amaliyot o'tkazilgan?



5. Har bir to'g'ri to'rtburchakning bo'yи va enini santimetrlarga aylantiring. Ularning perimetrlarini taqqoslang.



6. Ustun ko'rinishida hisoblang.

$45 + 12$

$20 + 18$

$21 + 46$

$52 + 15$

$98 - 13$

$75 - 61$

$53 - 40$

$96 - 64$



7. Kasalxonada robotlar xonalarni zararli mikroblardan tozalashadi. Robot birinchi qavatda 23 ta xonani, ikkinchi qavatda 24 ta xonani, uchinchi qavatda 21 ta xonani tozalab chiqdi. Robot hammasi bo'lib nechta xonani mikrobdan tozaladi?

